

TEKNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR IJODKORLIGINI OSHIRISH

Shamsiyeva Nargiza

*Qashqadaryo viloyati, Koson tumani
85- maktab texnologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqola texnologiya faninining o'quvchilarda ixtirochilik, ijodkorlik, dizaynerlik qobiliyatlarining rivojlantirilishi xususan, o'quvchilarda o'z ijodiy g'oyasi asosida buyumni loyihalash qobiliyatlarining shakllantirilishida o'rni haqida.

Kalit so'zlar: Texnik loyihalash, badiiy loyihalash, ixyiro qilish, yaratish, texnik ijodkorlik, yaratuvchanlik, ijodiy g'oya, dizaynelik qobiliyati.

Texnologiya fani darslarining asosiy qismini amaliy mashg'ulotlar tashkil qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda nazariy mashg'ulotlarda olingan bilimlarni amalda, hayotiy tajribalar asosida mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilar ijodiy ishlaydilar, yangi g'oya va fikrlar asosida o'zlariga ishonch, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash sifatlari tarkib topadi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarga ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, kasbga yo'llovchi maqsadlarni singdiramiz. O'quvchilarni amaliy mashg'ulotga yakka tartibda ishlash, kichik guruhlarda ishlash, jamoa bilan ishlashga jalb qilishimiz mumkin. Ushbu jarayonlarni ko'rib chiqaylik.

1. Loyihalash. Bu jarayonda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, yaratuvchanlik qobiliyati shakllanadi. O'quvchilar buyumni texnik va badiiy loyihalaydilar. Texnik loyihalashda yasalayotgan buyumning texnik-texnologik, moddiy va funksional jihatlari yaratiladi. Badiiy loyihalashda esa, buyumning qulayligi inobatga olinib, tashqi go'zallik bilan boyitiladi. Bunda o'quvchilarning dizaynerlik qobiliyatlari rivojlantiriladi. O'quvchilar tayyorlanayotgan buyumga yaxlit bir asar sifatida qarab, uni yangicha dizaynda yaratishga harakat qiladilar. Faqat bunda buyum yasash jarayonida o'quvchiga ma'lum bir cheklovlar qo'yish yaramaydi. Texnologiya darslarida buyum yasashda o'quvchilarga badiiy loyihalash elementlarini o'rgatish kerak. Bular: -rang va shaklning yaxlitligi; -materialning shakli va birligi; -shaklning vazifasiga mosligi; -kompozitsiyada turli shakllarning muvofiqligi:

2. Buyumni rejalash. Bu jarayonda o'quvchilarning matematik savodxonlik va tejamkorlik sifatlari shakllanadi. Mana shu jarayonda o'quvchining yutuq va kamchiliklarini aytish maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Chunki o'quvchida keyinchalik o'z xatosini tuzatish va matematik va iqtisodiy bilimlarining

rivojlanishiga erishiladi. 3. Buyumni yasash. Buyum yasashda amaliy jarayonlarni (arralash, randalash, o'yish, vahokazo) fizika qonunlari asosida tushuntirish maqsadga muvofiq. Masalan, arralashda ishqalanishni kamaytirish uchun nima qilish kerak, bosim kuchuni qanday taqsimlash kerak vahokazo. Bunda o'quvchilarning tabiiy fanlardan egallagan bilimlarining amaldagi isboti kuzatiladi hamda o'quvchilarning ushbu fanlarga bo'lgan qiziqishlari kuchaytiriladi.

3. Briktirish va pardoqlash .Bu jarayon o'ta muhim sanaladi. Bunda o'quvchilar tayyorlagan buyum qismlarini estetik jihatdan zamonaviy va texnik talablarga javob beradigan qilib briktirishlari va bezashlari talab etiladi.

O'quvchilarga yasaladiga buyumni quyidagicha loyihalash va yasashga imkon beriladi:

1. Berilgan namuna asosida taqlid qilib loyihalash va yasash;

2. O'z ijodiy g'oyasi asosida loyihalash va yasash:

3. Shartlar bo'yicha loyihalash va yasash:

Berilgan namuna asosida taqlid qilib loyihalash va yasash taqdim etilganda o'quvchilar faqat shu berilgan namuna asosida , unga taqlid qilib buyumni yasaydilar, loyihalaydilar. Bunday usul o'quvchi o'rganishining dastlabki jarayonida qo'l keladi. O'quvchilar buyumni yasashlari jarayonida yangi g'oya tug'iladi va ular buyumni o'z ijodiy g'oyalari asosida loyihalab yasashni istaydilar. Chunki o'quvchida bu buyumni o'ziga moslab yangicha dizayn asosida yasash fikri tug'iladi. O'quvchilarning ijodiy g'oyalari rivojlantirilganidan so'ng ularga shart asosida loyilash vazifasi berilsa bo'ladi. Shartda yasaladigan buyumning vazifasi, eng katta va eng kichik o'lchamlari ko'rsatilishi mumkin.

O'quvchilarga bunday talablarni qo'yish ularning izlanishlarini faollashtiradi, muammoli vaziyatdan chiqish, yangicha dizayn va texnik vazifalarni bajaradigan buyumlar yaratishlariga turtki bo'ladi. O'quvchilarda ushbu qobiliyatlarni oshirishning yana bir yo'li , ularni to'garak mashg'ulotlariga jalb qilishdir. To'garak mashg'ulotida o'quvchi o'zi yasayotgan buyumga ijodiy yondasha oladi. Maktabda ochilgan mohir qo'llar to'garagi kelajakda o'quvchi qizlarimizning har tomonlama mohir hamda sarishtali bo'lishiga turtki bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Innovatsion texnologiyalar : nazariya va amaliyot" (Toshkent 2011)
2. [WWW. "Ziyonet".uz](http://www.ziyonet.uz) tarmog'idagi ma'lumot
3. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti huzuridagi XTXQT va ularning MO hududiy markazi "Oquv -uslubiy majmua" (Toshkent -2018)